



SHAXSIY MA'LUMOTLARNING O'G'IRLANISHI

Fozilova Bibi Robiya

Andijon shahar Yuridik texnukimi „Yuridik xizmat“ yo'nalishining 1- kurs talabasi

Annotatsiya: *Shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi bu foydalanuvchining ruxsatisiz uning shaxsiga oid ma'lumotlar, passport yoki identifikatsiya raqamlari, bank kartasi ma'lumotlari, login-parollarni noqonuniy tarzda qo'lga kiritilishidir.*

Kalit so'zlar: *Shaxsiy ma'lumotlar, firibgarlik, kiberxavfsizlik, ma'lumotlarning o'g'irlanishi.*

KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi inson hayotining deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Internetdan foydalanish yangi xavf-xatarlarni ham yuzaga chiqarmoqda.

Shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi - zamonaviy kiber makondagi eng jiddiy muammolardan biri bo'lib, u foydalanuvchilarning moliyaviy holati, shaxsiy hayoti, obro'si va xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shaxsiy ma'lumotlar - bu insonni bevosita yoki bilvosita aniqlash imkonini beruvchi ma'lumotlar to'plami. Raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi ushbu ma'lumotlarni kundalik hayotda juda ko'p platformalarga kiritishni talab qilmoqda. Shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy qo'lga kiritilishiga bir qator omillar sabab boladi: texnik zaifliklar, inson omili, ijtimoiy muhandislik va boshqalar.

Umumiy ma'lumotlar qatoriga insonning ism- familyasi, passport va boshqa shaxsiy hujjatlaridagi qaydlar, tug'ilgan sanasi va joyi kabi ma'lumotlar kiradi. Maxsus ma'lumotlar deganda, shaxsning irqiy va milliy mansubligi, siyosiy, diniy va falsafiy qarashlar tushuniladi.

Shaxsiy ma'lumotlar kiberhujumlar va xakkerlar orqali o'g'irlanmoqda. Bu jarayon bir qancha jiddiy oqibatlariga olib kelmoqda. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish - shaxsga doir ma'lumotlarga nisbatan amalga oshiriladigan har qanday xatti- harakatlarni o'zida qamraydi. Shaxsga doir ma'lumotlarni: to'plash, yozish, tizimlashtirish, saqlash - yangilash va o'zgartirishlar kiritish.

Bu o'rinda mamlakatimizda, birinchi navbatda, 2019- yil 1-oktyabrdan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun kuchga kirganini qayt etish maqsadga muvofiqdir: "Shaxsga doir ma'lumotlar jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va boshqa moddiy jismga qayd etilgan axborot hisoblanadi"

Xalqaro shartnomalarning aksariyatida shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti haqidagi ma'lumotlarni uning roziligisiz noqonuniy yig'ish yoki hammaga oshkor qilish yohud bu xabarlarni jamoat oldida so'zga chiqishda, ommaviy namoyish qiluvchi asarda yoki ommaviy axborot vositalarida tarqatish yoki boshqa maqsadlarda foydalanish taqiqlanishini ko'zda tutadigan tegishli normalar mavjud.



Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 12- moddasiga muvofiq: " Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomusi va sha'niga o'zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas".

O'zbekiston Respublikasida shaxsiy hayot daxlsizligiga bo'lgan huquq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha' ni, qadr- qimmat va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Shu o'rinda mamlakatimizda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohot asnosida asosiy qonunimizni inson huquqlarini, jumladan, shaxsga doir ma'lumotlarni yanada keng darajada himoyalaydigan normalar bilan boyitishga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida: Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. Shaxsiy hayot daxlsizligi Jinoyat kodeksi bilan ham qo'riqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga ko'ra, fuqarolarning shaxsiy hayotiga doir ma'lumotlarni oshkor etish jinoiy javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, Jinoyat Protsessual Kodeksining bir qator moddalari 17, 19, 88 - moddalari, shaxsiy hayot daxlsizligiga oid normalar mustahkamlangan.

Xulosa

Shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi zamonaviy axborot jamiyatida eng dolzarb xavfsizlik muammolaridan biridir.

Raqamli xizmatlar kengayib borayotgani sari kiberjinoyatchilar uchun ma'lumotlarga noqonuniy yo'l bilan kirish imkoniyatlari ham ortib bormoqda.

Bu esa nafaqat jismoniy shaxslarga moliyaviy va manaviy zarar yetkazadi, balki tashkilotlar obro'si, iqtisodiy barqarorligi ham jiddiy xavf ostida qolishiga sabab bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Konstitutsiyasi". T.: O'zbekiston, 2023
2. O'zbekiston Respublikasi "Jinoyat Kodeksi"
3. O'zbekiston Respublikasi "Jinoyat Protsessual Kodeksi"
4. O'zbekiston Respublikasi " Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"